

**FARG'ONA VODIYSIDA PEDAGOGIKA FANINI
RIVOJLANTIRISHDA ZIYOLILARNING ME'ROSLARINI MOHIYATI VA
MAZMUNI**

**СУЩНОСТЬ И СОДЕРЖАНИЕ НАСЛЕДИЯ ИНТЕЛЛЕКТУАЛОВ В
РАЗВИТИИ ПЕДАГОГИКИ В ДОЛИНЕ ФЕРГАНА.**

**THE ESSENCE AND CONTENT OF THE HERITAGE OF INTELLECTUALS
IN THE DEVELOPMENT OF PEDAGOGY IN THE FERGANA VALLEY**

Oxunova Dilnoza Qaxxorjonovna

Farg'ona davlat universiteti

Pedagogika kafedrasi o'qituvchisi p.f.b.f.d PhD

oxunova2302@gmail.com

<tel:+998901602032>

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Farg'ona vodiysida yashab ijod etgan, pedagogika fani rivojiga hissa qo'shgan jadid ziyolilarining hayoti va ijodi hamda ma'naviy me'roslari mazmun-mohiyati ochib berilgan.*

Аннотация: *В данной статье раскрывается суть жизни, деятельности и духовного наследия интеллектуалов из династии джадидов, которые жили и работали в Ферганской долине и внесли вклад в развитие педагогической науки.*

Abstract: *This article reveals the essence of the life, work and spiritual heritage of intellectuals from the Jadid dynasty, who lived and worked in the Fergana Valley and contributed to the development of pedagogical science.*

Bugungi kunda ma'naviyat masalasi ijtimoiy hayotimizning asosiy masalalaridan biriga aylanib qoldi. Istiqbolning dastlabki kunlaridanoq mamlakatimizda bu sohaga ulkan va uzluksiz e'tibor qaratib kelinmoqda. Davlatimiz rahbarining har bir nutq va ma'ruzalari, maqola va chiqishlarida yuksak ma'naviyatli va intellektual bilimli yoshlar kelajak poydevori ekanligi qayta-qayta ta'kidlanmoqda. Buning uchun albatta, ta'lim-tarbiya tizimini rivojlantirish darkor.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tub islohotlarning muvoffaqiyati ta'lim-tarbiya tizimini o'zgartirish, uni hozirgi davr talabi darajasiga ko'tarish, har tomonlama barkamol shaxsni shakllantirishga ko'p jihatdan bog'liq. Chunki, jamiyat taraqqiyoti, uning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanganligi shu jamiyatda yashayotgan fuqarolarning intellektual va ma'naviy salohiyati bilan belgilanadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda har bir davlatning istiqboli uning ertangi kuni tarbiyasi bilan bevosita aloqadordir. Shuningdek, XIX-asr oxiri XX- asr boshlarida yashab ijod qilgan maktab va maorif, ta'lim-tarbiya sohasida ilg'or fikrlar bilan maydonga chiqqan ma'rifatparvar pedagoglar Isohoqxon Ibrat, Axmat Donish, Maxmudxo'ja Bexbudiy, Abdulqodir Sakuriy, Abdulla Avloniy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdurauf Fitrat, Hamza Hakimzoda Niyoziy

va boshqalarning ilmiy pedagogik merosi ham hozirgi mustaqillik sharoitida ta'lim-tarbiya muamolarini hal etishda muhim manbalardan sanaladi.

Hammaga ma'lumki Farg'ona vodiysi o'zining tabiati, mehmondo'st halqi, dunyoga mashxur allomalari bilan boshqa viloyatlar ichida alohida ahamiyatga ega. Farg'ona viloyatida qadim-qadimdan ta'lim-tarbiya sohasi rivojlanib kelgan. Albatda bunday rivojlanishga shu yurtda yashagan ziyoli pedagoglar o'z hissalarini qo'shganlar. Birgina Qo'qon shahrida mavjud bo'lgan ta'lim-tarbiyaga nazar tashlasak bunga amin bo'lamiz.

Xonlik davrini o'zida Qo'qon shahrida bir necha o'quv yurtlari: madrasalar, maktablar, va qorxonalar mavjud edi. Madrasalar musulmon oliy o'quv yurtlari hisoblangan. Maktablar esa maschitlar qoshida va xususiy uylarda tashkil etilgan. Xonlar o'rdasida xonzoda va zodagonlarning bolalarini o'qitish uchun maxsus maktab bor edi. Masalan, "Ansob assalotik va taborixi al-havoqin" nomli asarda yozilishicha, "Musilmonqul Mingboshining buyrug'i bilan yosh Xudoyorxon va qipchoqlar bolalarini o'qitish uchun o'rdada maktab qurilib, unga maktabdor etib Mulla Sodiqlik tayinlangan". Shu yerda e'tiborga olish kerakki, bu maktab hozir Qo'qonda mavjud bo'lgan Xudoyorxon o'rdasida emas, balki 1845-yilda bo'lgan xon o'rdasida edi. Keyinchalik bu o'rda buzilib ketgan.

Odatda, maktablarda asosan o'qish va yozish, arifmetika va adabiyot o'qitilgan edi. Qorixonalarda esa asosan ko'zi ojizlar o'qib, Qur'on, doston va she'ru g'azallar yodlar edilar. Maktablar qizlar uchun alohida, ug'il bolalar uchun alohida bo'lgan. Masalan mashxur shoira Dilshod Qo'qonda maktab ochgan. U o'zining pedagogik faoliyati haqida bunday deb yozgan edi; "Mening suhbatdoshlarim va dugonalarim aqlli qizlar va iste'dodli shoiralar edi. Ellik bir yil davomida men maktabdorlik qildim va yiliga o'rtacha yigirmattadan o'ttiztagacha o'quvchilarim bo'lib, sakkizyuz to'qsonta qizlarning savodini chiqardim, bulardan deyarli chorak qismi she'riyatga qobiliyatli bo'lib shoira va o'z davrining aqlli va dono ohamlari edi". Qo'qon shahrida boshqa shaharlarga nisbatan maktablar soni ko'proq bo'lgan. Bu esa Qo'qonliklarning aksariyat ko'pchiligi savodli bo'lib, o'qish va yozishga usta bo'lganligidan dalolat beradi.

O'qituvchilar o'z uylarida ochgan xususiy maktablaridan tashqari barcha o'quv yurtlari, turli shaxs va tashkilotlar tomonidan xayriya qilingan vaqflardan tushadigan daromad hisobiga ishlar edi. Ularning odatida maschidlar birinchi o'rinda turardi, chunki deyarli barcha maschidlarda maktablar ochilgan.

1841-yilgi ma'lumotlarga qaraganda, Qo'qon shahridagi asosiy madrasasida 1000ta mulla o'qigan. Bu madrasani ikkita bosh mudarris boshqargan; Eshon Mavloniy va Maxzumi Buxoriy. Bular hurmatli insonlar bo'lib, katta ilmga ega edilar. Madrasalar Qo'qon xonligining boshqa shaharlarida ham bor edi, ammo ular Qo'qondagidek salobatli va katta emasdi. O'qishni bitirganlarni ayrimlari bilimni takomillashtirish va oshirish uchun Buxoro va Samardand madrasalariga ham borib o'qiganlar.

Madrasalarda o'quv dasturi asosan uch bosqichda: boshlang'ich (adno), o'rta (avsat) va yuqori (alo) bosqichlarda olib borilib, unda uchta til (arab, fors va turkiy) mukammal o'rgatilgan. Madrasalarda Qur'on ilmi (o'qish uslublari, qiroat tavsifi) fiqh (shariat qonunlari), handasa, ilmi nujum, ahloq, falsafa, mantiq, adabiyot, jo'g'rofiya, tarix,

tabobat fanlari o'qitilgan. Talabalar arab va fors tillari orqali Fariduddin Attorning "Mantiq ut-tayr", Hofiz Sheroziy devoni, Mirza Abduqodir Bedil devoni, Mir Alisher Navoiyning "Chor devon"ni, Fo'zuli g'azaliyoti hamda SHarqda milliy ta'lim sohasida darslik va qo'llanma sifatida foydalanib kelinayotgan "Maslak ul-mutaqqin", "Avali ilm", "Mu'zi Vazentoni", "Avomil", "Harakat", "Qofiya", "Sharqi muloyi Jomiy", "Risolai SHamsiya" kabi risolalar bilan tanishish imkoniga ham ega bo'lganlar. Bu esa madrasalarda ta'lim jarayonida badiy adabiyotning mumtoz namunalari keng o'rin olganligini, dunyoni anglash, tafakkuri shakllantirish borasida badiy asarlarga alohida ahamiyat berilganligini ko'rsatadi. Madrasalarda bilim olish mumkinligi, bu erda ham diniy, ham ilmiy, ham madaniy fanlar bo'yicha dunyoga tanilgan mudarrislar, olimlar bor bo'lganligi uchun ham Turkistonga turli mamlakatlardan ko'plab talabalar kelib o'qitganlar.

Jadidchilik (arabcha yangi) – XIX asr oxiri XX asrning birinchi choragida Markaziy Osiyo, Qrim, Kavkaz, Volgabo'yi hududlarida shakllangan, yangi zamonaviy maktab, matbaa va taraqqiyotning ilg'or usul va yo'llarini yoqlab chiqqan ijtimoiy-ma'rifiy harakat. Jadidchilikni shakllantirishda ko'plab millat ziyolilari faol qatnashgan. Jamiyatni o'rtaasrchilik illatlari, madaniy qoloqlik va mustamlaka zulmidan, xurofotdan ozod qilish, xalqni zamonaviy taraqqiyot yo'liga olib chiqish, milliy davlatchilik asoslarini bunyod etish jadidchilik harakatining asosiy maqsadi edi. Turkistondagi jadidchilik harakatiga Behbudiy, Munavvarqori, Fitrat, Cho'lpon, Pahlavon Niyoz Hoji, Abdulla Avloniy, Hamza Hakimzoda, Abdulla Qodiriy, "Yosh buxoroliklar", "Yosh xivaliklar" tashkiloti rahbarlari boshchilik qilishgan. Bu harakat o'zining mazmun-mohiyatiga ko'ra, XIX asr boshlarida mavjud bo'lgan diniy islohotchilikdan farq qiladi. Ogahiy, Nodira, Ahmad Donish, Turdi, Maxmur, Furqat, Muqimiy kabi ijodkorlar mansub bo'lgan avlodning qarashlari asosan ma'rifatparvarlik tamoyiliga tayanar edi. Jadidlar esa nafaqat ma'rifat, balki jamiyat hayotining barcha sohalarini isloh qilish, mavjud tartiblarni o'zgartirish yo'lidan bordilar.

Jadidchilik davriga kelib Qo'qonda ham bir qancha maktablar faoliyat ko'rsatgan. Turkistondagi dastlabki jadid maktablari XIX asrning 80-90-yillarida Farg'ona viloyatining boy shaharlari (Qo'qon, Andijon va boshqa.) da paydo bo'lgan. Vodiydagi usuli savtiya ta'limi rivojida dastlab tatar va turk muallimlarining xizmati katta bo'ldi. Xususan, tatar muallimi Salohiddin afandi Majidov 1899-yildan Qo'qonda yangi usul maktabi ochib, o'qituvchilik faoliyatini boshladi. Rafiqasi muallima Imgulsum xonim bilan birgalikda yangi usul maktabida o'g'il va qiz bolalarni to'rt sinfga bo'lib, ularga o'qish, yozish, sarf qoidalari, boshlang'ich diniy bilimlar, she'r va hikoyalar, hisob va jug'rofiya darslarini o'qitdi. Qolaversa, qiz bolalarga qo'l hunarlarini ham o'rgatdi. Lekin, bu ma'rifatparvarning faoliyati rus mustabid hokimiyatiga yoqmadi.

1911-yil O'lka o'quv yurtlari inspektori buyrug'i bilan uning maktabi yopildi[2]. XIX-asrning 90-yillarida Andijonga kelgan Said afandi ismli turk muallimi ham shaharda usul savtiya maktabi ochdi[1]. Ammo, uning maktabi ham rus ma'muriyat tomonidan yopildi. Shunday bo'lsa-da, muallim ishini to'xtatmadi. Boshqa kishini nomida maktab ochib faoliyatini davom ettirdi. Ayni paytda, vodiydagi usul savtiya maktablari milliy

ma'rifatparvarlar yetakchiligida yanada rivojlandi. Millat oydinlaridan biri bo'lgan Munavvarqori o'z faoliyatida Toshkent hududi bilan cheklanmay, Farg'ona hududidagi yangi usul maktablar tizimini ham kengaytirishga harakat qildi. Shu maqsadda maslakdoshlari Mulla Ashurali va Mulla Olimjon ismli Qo'qonlik muallimlar bilan hamkorlikda ishladi. Natijada, 1913-yil Toshkentda Qo'qondagi jadid maktablarini rivojlantirish masalalari yuzasidan yig'in o'tkazildi.

Marg'ilon shahrida muallim Qudratullo qori Shohakim o'g'li va uning yordamchisi mulla Abdurahmon Abdukarim o'g'li usuli savtiyani rivojlantirdilar. Bu jadid o'qituvchilar mustabid hukumat tomonidan tazyiqlarga uchrasa-da, o'z maslaklaridan qaytamdilar. Ularning maktabi "inspektur tomonidan hafiz sihatga muvofiq emas, deb berkitdirilgandan so'ng, ...nochor maktab bolalarining madrasaning sahnida ochiq havoda ustiga (brezent) yopib shunda o'quta boshladilar". Shahrixon hududidagi uch usul savtiya maktabi ichida muallim Xo'jaxon Mansurxo'ja o'g'li maktabi birinchi safda turdi. 1914-yil 5-mayda uning maktabida bolalardan imtihon olinib, "bolalarning to'qalmay o'qug'onlari, ham xat ta'blig' ilan xushxat yozg'an" ligi xalq ommasida usuli savtiyaga nisbatan qarashlarni ijobiy tomonga o'zgarishiga sabab bo'ldi. Shu maktabda 14-iyunda bo'lgan ikkinchi imtihonda bu yana bir bor o'z tasdig'ini topdi. Unda "alhosil to'rt yuzg'a yaqin odam hozir bo'lgan erdi. Muallim Ma'ruf mulla Muhammadxon qori har boladin alohida savol qilub, muvaffaq javoblar eshitub turdi. ...bolalarg'a pichoq va qalamdonlardan hadyalar berib tarqaldilar".

Jadid maktablarini moddiy-ma'naviy qo'llab-quvvatlagan guruh vakillarining ham bu kurashda olib borgan harakatlari alohida ahamiyatga ega. Qo'qonda Nosirxon To'ra, Muhiddin hoji, Faxriddin hoji, Abdulg'ofur hoji Rahim Mirzo, Tojixo'ja qori afandi, Abdulg'affor hoji afandi, Abdulmo'min afandi, Yunusxo'ja afandi, Toshmuhammadxo'ja kabi 15-20 dan ortuqroq ruhoniyy va g'ayr ruhoniyy yosh millatparvar afandilar; Shahrixonda Mahmudbek hoji Temurbekov kabi millatimizning mo'tabar saxovatpesha amaldor va savdogar boylari o'z mablag'larini in'om qilish, yer ajratish, bino qurib berish, asbobuskunalar bilan jihozlash kabi ishlar orqali yangi usul maktablarini moddiy jihatdan ta'minlashga harakat qildi. Qo'qonda bir yangi usul maktabini ochishdan tortib jihozlashgacha, va hatto, inspektordan ruxsat olishga qadar bo'lgan ishlarda 15-20 dan ortuqroq ruhoniyy va g'ayr ruhoniyy yosh millatparvar afandilar g'ayrat ko'rsatgan.

Yangi usul maktab va maorifni targ'ib qilishda Olimjon Muhammadiy, Ixyo Qori, mulla Kamoliddin qozi, mulla Abdug'ani mulla Abdurahmon o'g'li, A.Mavluniy, Muhammad Muso Muhammad Iso o'g'li, Nosirxon Valaddin kabi ma'rifatparvar ziyolilar va diniy olim-u ulamolar o'z fikr-mulohaza va chaqiriqlari bilan jonbozlik ko'rsatgan. Xususan, A. Mavluniy "O'qimoqdan maqsad nima..? Maqsad: nizomga kirgan tartiblik maktab va madrasalarda o'qub, din va shariatimizni tamom ahkomi birlan yaxshi bo'lgandan keyin zamonaga keraklik ilm va fanun va sanoyi jadidalarni o'rganub millatni foydasig'a yuradurgan diyonatlik millatni suyuchi zotlardan bo'lub kuchi yetgancha millatga naf tekkuzmoqdur"[2], deya yoshlarni yangi usulda o'qishga chaqirgan.



Yuqoridagilardan kelib chiqadigan xulosa shuki, o'lkada xalqlarining mustamlaka siyosati qurboniga aylantirilganligi va buning natijasida madaniy o'zlikni yo'qotish xavfi paydo bo'lganligi jadidchilik harakatini maydonga chiqardi. Harakat davriy matbuot orqali butun keng quloch yoydi. Jadidchilik harakati ilk bosqichda xalq tafakkurini ilm orqali yuksaltirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi. Bu yo'lida amaliy harakatlari qilib, jadid maktablari tizimini vujudga keltirdi. Farg'ona vodiysi butun o'lkada bo'yicha bunday maktablar ochilgan ilk hudud bo'ldi. Bu hududda jadid maktablarining ochilishi va yuksalishida millatidan qat'iy nazar, shu yerda yashab faoliyat yuritgan barcha aholi birdek harakat qildi. Jadidlarning yirik vakillari tashkilotchilik roliga jadid maktablar tizimini butun o'lkada bo'ylab yoydi. Birlashib harakat qilishga intildi. Ularni orqasidan ergashgan millatparvar ziyolilar yangi usul maktablarini rivojlantirish yo'lida kurash olib bordi. Jadid maktablariga tayanch, tirgak bo'ldi. Xalqqa yangi usul maktablari mazmun-mohiyatini anglatdi. Ularni moddiy-ma'naviy qo'llagan bir guruh vatandoshlarimiz, xususan, boy savdogarlarimiz, taraqqiyparvar ruhoniylarimiz va gazetchi voizlarimiz o'z mablag'lari va dav'atlari bilan yangi usul maktabini dastakladi. Usuli jadid tarafdorlarining barchasi yagona maqsad – Vatanni ozod va obod holda taraqqiy ettirish yo'lida jipslashdi. Shu maqsad yo'lida mustamlaka zulmiga qarshi faol ma'rifiy kurash olib bordi. Albatta, ularning xizmatlari o'z davridayoq xalqimiz tomonidan e'tirof etildi. Ularga gazetalari orqali rahmatlar va tashakkurlar bildirildi. Bugun ham ushbu insonlarning barchasi tariximizning eng yorqin sahifalaridan joy olishga munosibdir. Zero, ularning tub maqsadi bo'lgan yuksak saviyali komil insonni tarbiyalash orqali Vatan ozodligini asrash va millatni taraqqiy ettirish bugun ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Hoshimov K., Nishonova S. Pedagogika tarixi Toshkent: O'qituvchi, 2002. - 256 b
2. Hayrullaev M., Iskandarov I. O'zbek pedagogikasi antologiyasi. Toshkent: O'qituvchi, 1996. - 189 b
3. Okhunova, D. K. (2022, October). APPROACHES TO EXPANDING THE POSSIBILITIES OF COGNITIVE ACCEPTANCE OF PROFESSIONAL KNOWLEDGE OF FUTURE TEACHERS. In INTERNATIONAL CONFERENCE: PROBLEMS AND SCIENTIFIC SOLUTIONS. (Vol. 1, No. 5, pp. 26-32).
4. Dilnoza Okhunova, (2022/6/14). The System of Cognitive Activity in the Acquisition of Professional Knowledge by Future Teachers. European Multidisciplinary Journal of Modern Science (7- tom 136-140)